

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

9 ЖИЛД, 3/1 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 9, НОМЕР 3/1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 9, ISSUE 3/1



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

№3/1 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2026-3/1>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабилова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдуғани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решаёт задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счёт внедрения достижений научных исследований учёных и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариёва Аълохон Нуриддиновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухраҳон Пиржановна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)
Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МАҚОЛАДА КЕЛТИРИЛГАН ДАЛИЛЛАРНИНГ ТЎҒРИЛИГИ УЧУН МУАЛЛИФ МАСЪУЛДИР | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

1. Abdullayev Sardorbek

PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMIDA MEHNAT BOZORI EHTIYOJLARINI PROGNOZLASHNING SOTSIOLOGIK MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....5

2. Пак Полина

ЦИФРОВАЯ СОЦИАЛЬНАЯ АКТИВНОСТЬ НАСЕЛЕНИЯ В СИСТЕМЕ ОБЩЕСТВЕННОГО КОНТРОЛЯ: СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ОПЫТА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....12

3. Вахидова София

ФАКТОРЫ, ПРЕДСКАЗЫВАЮЩИЕ ПРИВЕРЖЕННОСТЬ ГЕНДЕРНЫМ СТЕРЕОТИПАМ В ОТНОШЕНИИ МУЖЧИН: ОПЫТ МНОЖЕСТВЕННОГО РЕГРЕССИОННОГО АНАЛИЗА.....21

4. Abduvalieva Mumtozxon, Qo'ldosheva Iroda

BOLALAR IJTIMOY HIMOYASINING XALQARO STANDARTLARI VA GLOBAL RIVOJLANTIRISH TENDENSIYLARI.....29

5. Bozorova O'lmasxon

DAVLAT BOSHQARUVI MODERNIZASIYASIDA YOSH RAHBARLAR IJTIMOY KAPITALINING KONSTRUKTIV XUSUSIYATLARI: SOTSIOLOGIK TAHLIL.....37

6. Adilova Rayxon

IBN SINONING "SIYOSAT"RISOLASIDA "DAVLAT ICHIDAGI DAVLAT" NAZARIYASI.....44

7. Artikbayeva Nazokat

YOSHLARDA INTERNETGA QARAMLIK TUSHUNCHASI VA UNING IJTIMOY MUNOSABATLARGA TA'SIRI: SOTSIOLOGIK TAHLIL.....52

8. Arifxodjayeva Luiza

YOSH RAHBARLARDA O'ZGARISHLARNI BOSHQARISH KOMPETENSIYASINI BAHOLASH TIZIMI VA SAMARADORLIKNI OSHIRISH ISTIQBOLLARI.....58

9. Махмудова Малика

ЛАТЕНТНАЯ «ВИНОВНОСТЬ ЖЕРТВЫ» КАК БАРЬЕР ДОСТУПА ЖЕНЩИН К ПРАВОСУДИЮ ПО ДЕЛАМ О СЕМЕЙНОМ НАСИЛИИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....65

10. Тилепова Гулайым

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ МЕХАНИЗМЫ СОЦИАЛЬНОГО УПРАВЛЕНИЯ ЭТНОКУЛЬТУРНОЙ ИНТЕГРАЦИЕЙ.....76

11. Bekchanova Sevinch

NOGIRONLIGI BOR BOLALAR OTA-ONALARINING INKLYUZIV TA'LIM JARAYONIDA ISHTIROKI: "SHAXSIY JASORAT"DAN INSTITUTSIONAL SHERIKLIKKA (TOSHKENT SHAHRI SERGELI TUMANI MISOLIDA).....90

12. Abdullayev Sardorbek

PROFESSIONAL TA'LIM BITIRUVCHILARINING MEHNAT BOZORIGA INSTITUTSIONAL MOSLASHUVINI BAHOLASHNING SOTSIOLOGIK MEZONLARI.....97

13. Azizov S.

MARKAZIY OSIYO VA YAPONIYA XALQLARI O'RTASIDAGI ILK MADANIY-SIVILIZATSIYAVIY ALOQALAR: TARIXIY-METODOLOGIK TAHLIL.....105

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Artikbayeva Nazokat,

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi tayanch doktoranti
e-mail: uzromedia11117@gmail.com

YOSHLARDA INTERNETGA QARAMLIK TUSHUNCHASI VA UNING IJTIMOY MUNOSABATLARGA TA'SIRI: SOTSIOLOGIK TAHLIL

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.21498653>

ANNOTATSIYA

Maqolada yoshlar orasida internetga qaramlik tushunchasi hamda uning ijtimoiy munosabatlarga ta'siri sotsiologik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Internetning zamonaviy jamiyat hayotidagi o'rni ortib borishi bilan bir qatorda undan me'yoridan ortiq foydalanish natijasida yuzaga kelayotgan ijtimoiy muammolar ilmiy adabiyotlar asosida yoritilgan. Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va kontent tahlili usullaridan foydalanildi. Internetga qaramlikning oila, tengdoshlar, ta'lim jarayoni hamda yoshlarning ijtimoiylashuviga ko'rsatadigan ta'siri baholandi. Tadqiqot natijasida internetga qaramlikni faqat psixologik emas, balki yoshlarning ijtimoiy munosabatlariga ta'sir etuvchi kompleks sotsiologik hodisa sifatida baholash zarurligi asoslandi. Shuningdek, internetga qaramlikning salbiy oqibatlarini kamaytirishda raqamli madaniyatni rivojlantirish hamda ijtimoiy institutlar hamkorligini kuchaytirish bo'yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: Internetga qaramlik, yoshlar, ijtimoiy munosabatlar, sotsiologik tahlil, ijtimoiylashuv, raqamli jamiyat, raqamli madaniyat, ijtimoiy institutlar.

Артикбаева Назокат,

докторант (PhD) Академии государственного управления
при Президенте Республики Узбекистан
e-mail: uzromedia11117@gmail.com

ПОНЯТИЕ ИНТЕРНЕТ-ЗАВИСИМОСТИ У МОЛОДЕЖИ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА СОЦИАЛЬНЫЕ ОТНОШЕНИЯ: СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

АННОТАЦИЯ

В статье с социологической точки зрения проанализировано понятие интернет-зависимости среди молодежи и её влияние на социальные отношения. Наряду с возрастающей ролью Интернета в жизни современного общества, на основе научной литературы освещены социальные проблемы, возникающие в результате его чрезмерного использования. В исследовании использованы методы теоретического анализа, сравнительного анализа, системного подхода и контент-анализа. Было оценено влияние интернет-зависимости на семью, сверстников, образовательный процесс и социализацию молодежи. В результате исследования обоснована необходимость оценки интернет-зависимости не только как

психологического, но и как комплексного социологического явления, влияющего на социальные отношения молодежи. Также были разработаны научные выводы по развитию цифровой культуры и усилению сотрудничества социальных институтов в снижении негативных последствий интернет-зависимости.

Ключевые слова: интернет-зависимость, молодежь, социальные отношения, социологический анализ, социализация, цифровое общество, цифровая культура, социальные институты.

Artikbaeva Nazokat,

Under the President of the Republic of Uzbekistan

Doctoral candidate at the Academy of Public Policy and Administration

e-mail: uzromedia11117@gmail.com

THE CONCEPT OF INTERNET ADDICTION AMONG YOUTH AND ITS IMPACT ON SOCIAL RELATIONS: A SOCIOLOGICAL ANALYSIS

ABSTRACT

This article examines the concept of internet addiction among youth and its impact on social relations from a sociological perspective. Based on a theoretical review of scientific literature, the study analyzes the social consequences of excessive internet use in the context of a rapidly developing digital society. The research employs theoretical analysis, comparative analysis, a systems approach, and content analysis to investigate the phenomenon. Particular attention is given to the influence of internet addiction on family relationships, peer communication, educational activities, and the socialization of young people. The findings indicate that internet addiction should be considered not only as a psychological issue but also as a complex sociological phenomenon affecting social relations and social participation. The article emphasizes the importance of strengthening digital culture, promoting responsible internet use, and enhancing cooperation among families, educational institutions, and other social institutions to reduce the negative social consequences of internet addiction.

Keywords: Internet addiction, youth, social relations, sociological analysis, socialization, digital society, digital culture, social institutions.

KIRISH

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va internet infratuzilmasining kengayishi natijasida ta'lim, axborot almashinuvi, mehnat va shaxslararo muloqat jarayonlari yangi bosqichga o'tdi. Internetni rivojlanib borishi yoshlar uchun keng imkoniyatlar yaratishi bilan bir qatorda, undan me'yoridan ortiq va nazoratsiz foydalanish kabi bir qator ijtimoiy muammolarni ham uzaga keltirmoqda. Bugungi kunda internetga qaramlik yoslar ijtimoiylashuviga, oilaviy munosabatlarga, tengdoshlar bilan muloqatga hamda jamiyat hayotidagi faol ishtirokiga ta'sir etuvchi muhim omillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda [1].

Internetga qaramlik tushunchasi ilmiy adabiyotlarda 1990-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab shakllana boshladi. Ivan Goldberg tomonidan "Internet Addiction Disorder" atamasi ilk bor tilga olingan bo'lsa, mazkur muammoni ilmiy jihatdan tizimli o'rganish va nazariy asoslash Kimberly S.Young tadqiqotlari bilan bog'liq hisoblanadi [2; 3].

Internet qaramlikni ilmiy jihatdan tizimli o'rganishda Kiberly S.Youngning tadqiqotlari alohida o'rin tutadi. Olim internetga qaramlikni baholash uchun Internet Addiction Test (IAT) metodikasini ishlab chiqqan hamda internetdan ortiqcha foydalanishning asosiy belgilari sifatida nazoratning yo'qolishi vaqtini samarali boshqara olmaslik, kundalik faoliyat samaradorligining pasayishi va real ijtimoiy munosabatlarning cheklanishini qayd etgan [3].

Mark D.Griffiths internetga qaramlikni kimyoviy moddalar iste'moli bilan bog'liq bo'lmagan, balki insonning muayyan xulq-atvorini takroriy va nazoratsiz amalga oshirishi natijasida shakllanadigan bixevioral qaramlik turlaridan biri sifatida baholaydi [4]. Muallifning ta'kidlashicha,

bunday qaramlik shaxsning kundalik hayoti, ijtimoiy munosabatlari va funksional faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Internetga qaramlikni faqat bixevioral qaramlik sifatida baholash yetarli emas. Chunki mazkur hodisa yoshlarning ijtimoiy munosabatlari, ijtimoiylashuv jarayonlari va ijtimoiy institutlar bilan o'zaro aloqalariga ham ta'sir ko'rsatadi. Shu bois uni sotsiologik nuqtai nazardan ham kompleks tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Daria J.Kuss internetga qaramlikning ijtimoiy oqibatlarini tahlil qilar ekan, internetdan muammoli foydalanish oila a'zolari bilan muloqatning kamayishi, tengdoshlar bilan munosabatlarining zaiflashishi, ijtimoiy izolyatsiyaning kuchayishida ijtimoiy kapitalning pasayishiga olib kelishi mumkinligini ilmiy jihatdan asoslaydi [5].

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan qabul qilingan ICD-11 xalqaro tasnifida internet bilan bog'liq xulq-atvor buzilishlarining ayrim turlari, xususan Gaming Disorder alohida tashxis sifatida kiritilgan. Bu internet bilan bog'liq qaramlik muammosining jahon miqiyosida muhim tibbiy va ijtimoiy ahamiyat kasb etayotganligini ko'rsatadi [6].

O'zbekistonda raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi yoshlarning axborot olish va ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qilmoqda. Biroq internetdan nazoratsiz foydalanishning ijtimoiy munosabatlarga ta'siriga bag'ishlangan sotsiologik tadqiqotlar hali yetarli emas. Mavjud tadqiqotlarning asosiy qismi internetga qaramlikning psixologik jihatlariga bag'ishlangan bo'lib, uning ijtimoiy munosabatlar transformatsiyasiga ta'siri nisbatan kam o'rganilgan [7].

Internetga qaramlikni faqat psixologik muammo sifatida emas, balki raqamli jamiyatda ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy lashuv jarayonlari va ijtimoiy institutlar faoliyati bilan chambarchas bog'liq bo'lgan kompleks sotsiologik hodisa sifatida tadqiq etish maqsadga muvofiq. Bu maqolada internetga qaramlikning yoshlar ijtimoiy munosabatlarga ta'siri zamonaviy sotsiologik yondashuvlar asosida tahlil qilindi. So'nggi tizimli tahlillarda internetga qaramlik biologik yoki psixologik omillar bilan cheklanmay, shaxsning ijtimoiy moslashuvi, ta'lim faoliyati hamda kundalik ijtimoiy funksiyalariga ta'sir etuvchi ko'p omilli hodisa sifatida tavsiflanadi [8].

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqot nazariy – tahliliy yondashuv asosida amalga oshirildi. Tadqiqotning metodologik asosini internetga qaramlik, raqamli ijtimoiylashuv va yoshlarning ijtimoiy munosabatlariga bag'ishlangan xorijiy hamda mahalliy ilmiy adabiyotlar tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida mavzuga oid monografiyalar, ilmiy maqolalar, xalqaro tashkilotlar hujjatlari hamda dissertatsiya ishlari tahlil qilindi.

Tadqiqotda tahlil va sintez usullaridan foydalanilib, internetga qaramlikka oid turli ilmiy qarashlar umumlashtirildi.

Bu usul internetga qaramlik tushunchasining shakllanishi, uning asosiy belgilari hamda ijtimoiy oqibatlari haqidagi nazariy yondashuvlarni tizimlashtirish imkonini berdi [3].

Qiyosiy tahlil usuli orqali internetga qaramlikka doir turli ilmiy maktablar va olimlarning yondashuvlari o'zaro taqqoslandi. Xususan, Kimberly S.Young, Mark D.Griffiths va Daria J.Kuss tomonidan ishlab chiqilgan nazariy yondashuvlar tahlil qilinib, ularning umumiy va farqli jihatlari aniqlandi

Kontent-tahlil usuli yordamida internetga qaramlikka oid ilmiy maqolalar mazmuni o'rganildi. Tahlil jarayonida internetga qaramlikning yoshlar ijtimoiy munosabatlari, oilaviy muloqot, tengdoshlar bilan munosabatlar hamda ijtimoiylashuv jarayonlariga ta'siriga oid ilmiy qarashlar tizimlashtirildi [10].

Tadqiqotda tizimli yondashuv ham qo'llanildi. Mazkur yondashuv internetga qaramlikni alohida psixologik holat sifatida emas, balki raqamli muhit, ijtimoiy institutlar va shaxs o'rtasidagi o'zaro ta'sir natijasida yuzaga keluvchi kompleks ijtimoiy hodisa sifatida tahlil qilish imkonini berdi [6].

Internetga qaramlikni tadqiq etishda yagona psixologik yoki tibbiy yondashuv bilan cheklanish yetarli emas. Mazkur muammoning ijtimoiy mohiyatini ochib berish uchun uni raqamli jamiyat, ijtimoiy institutlar, ijtimoiylashuv jarayonlari va shaxslararo munosabatlarni tizimi bilan uzviy

bog'liq holda kompleks sotsiologik tahlil qilish zarur. Shu jihatdan mazkur tadqiqotda qo'llanilgan nazariy-tahliliy yondashuv mavzuning ijtimoiy mazmunini kengroq yoritish imkonini beradi.

Internetga qaramlikni sotsiologik nuqtayi nazardan tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mazkur hodisa shaxsning internetdan ortiqcha foydalanishi bilan cheklanib qolmay, balki uning ijtimoiy munosabatlari va ijtimoiylashuv jarayonlarida ham sezilarli o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. Shu bois internetga qaramlikni baholashda uning ijtimoiy oqibatlarini ham kompleks tarzda tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi [5].

Daria J.Kuss internetga qaramlikning eng muhim ijtimoiy oqibatlaridan biri sifatida shaxslararo munosabatlarning zaiflashishini qayd etadi. Muallifning ta'kidlashicha, internetdan ortiqcha foydalanuvchilar real muloqotga nisbatan virtual muloqotni afzal ko'ra boshlaydi. Natijada oila a'zolari, do'stlar va yaqin ijtimoiy muhit bilan muloqot vaqti qisqaradi, ijtimoiy izolyatsiya xavfi ortadi hamda ijtimoiy kapitalning pasayishi kuzatiladi [5].

Mazkur jarayonni faqat muloqot vaqtining qisqarishi bilan izohlash yetarli emas. Internetga qaramlik yoshlarning ijtimoiy munosabatlari mazmunini ham o'zgartiradi. Virtual muhitdagi aloqalar soni ortishi mumkin, ammo ularning barqarorligi, ishonch darajasi va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari real munosabatlarga nisbatan cheklangan bo'lishi ehtimoldan xoli emas.

Mark D.Griffiths internetga qaramlikni bixevioral qaramlik shakllaridan biri sifatida baholar ekan, uning rivojlanishida psixologik omillar bilan bir qatorda ijtimoiy muhit ham hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, internet muhitida uzoq vaqt bo'lish real hayotdagi ijtimoiy rollarning bajarilishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu esa oilaviy munosabatlar, ta'lim jarayoni va mehnat faoliyatida muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi [4].

Bizning fikrimizcha, internetga qaramlikning salbiy ta'siri internetdan foydalanishning o'zi bilan emas, balki shaxsning ijtimoiy rollari va majburiyatlari bilan raqamli faollik o'rtasida muvozanatning buzilishi bilan bog'liq. Agar mazkur muvozanat saqlansa, internet ijtimoiy rivojlanish vositasi bo'lishi mumkin, aks holda esa u ijtimoiy munosabatlarning transformatsiyasiga olib keladi.

Kimberly S.Young internetga qaramlikning asosiy belgilaridan biri sifatida shaxsning internetdan foydalanish ustidan nazoratni yo'qotishini ko'rsatadi. Olimning ta'kidlashicha, internetdan foydalanish vaqtining muntazam ortishi kundalik rejaning buzilishi, ta'lim yoki mehnat samaradorligining pasayishi hamda real hayotdagi ijtimoiy munosabatlarning cheklanishiga sabab bo'ladi [3].

Internetdan foydalanish davomiyligining o'zi internetga qaramlik mezonini bo'la olmaydi. Asosiy mezon internetdan foydalanish tufayli shaxsning ijtimoiy vazifalari, oilaviy munosabatlari va jamiyatdagi faol ishtirokiga salbiy ta'sir yuzaga kelganligi bilan belgilanadi. Shu bois internetga qaramlikni baholashda sotsiologik mezonlardan ham foydalanish maqsadga muvofiq.

Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar tahlili internetga qaramlikning ko'p qirrali ijtimoiy hodisa ekanligini ko'rsatdi. Internet inson hayotining ajralmas qismiga aylangan bo'lsa-da, undan me'yordan ortiq foydalanish yoshlarning ijtimoiy munosabatlari, oilaviy muloqoti, ta'lim jarayoni va jamiyat hayotidagi ishtirokida muayyan salbiy o'zgarishlarni keltirib chiqarishi mumkin. Xorijiy tadqiqotlarda mazkur muammo asosan psixologik va bixevioral yondashuvlar asosida tahlil qilingan bo'lsa, so'nggi yillarda uning ijtimoiy jihatlariga ham alohida e'tibor qaratila boshlandi [5].

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, internetga qaramlikning ijtimoiy oqibatlari, avvalo, shaxsning real ijtimoiy munosabatlarida namoyon bo'ladi. Internetda uzoq vaqt bo'lish oila a'zolari, yaqinlar va tengdoshlar bilan yuzma-yuz muloqot vaqtini qisqartiradi. Bu esa o'zaro ishonch, emotsional yaqinlik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash kabi munosabatlarning zaiflashishiga olib kelishi mumkin [5]. Cheng va Li tomonidan 31 mamlakat ma'lumotlari asosida o'tkazilgan meta-tahlil natijalariga ko'ra, internetga qaramlik darajasi oshgani sari shaxslarning real hayot sifati va ijtimoiy farovonligi pasayishi kuzatiladi [12].

Bizning nazarimizcha, internetga qaramlikning asosiy ijtimoiy xavfi muloqotning kamayishida emas, balki uning mazmuni o'zgarishida namoyon bo'ladi. Virtual muhitdagi muloqot ko'lamini kengayishi mumkin, ammo u har doim ham real ijtimoiy munosabatlarning o'rnini bosa olmaydi. Natijada yoshlarning ijtimoiy kapitali va jamoaviy faolligi pasayishi ehtimoli ortadi. Andreassenning ta'kidlashicha, ijtimoiy tarmoqlardan me'yordan ortiq foydalanish real ijtimoiy

munosabatlar sifatining pasayishiga hamda internetga qaramlik shakllanishiga xizmat qiluvchi muhim omillardan biri hisoblanadi [11].

Internetga qaramlikning yana bir muhim oqibati shaxsning ijtimoiy rollarini bajarishi bilan bog'liq. Ilmiy manbalarda internetdan nazoratsiz foydalanish ta'lim samaradorligining pasayishi, mehnat intizomining buzilishi va kundalik hayot tartibining izdan chiqishi bilan bog'liq holat sifatida baholanadi [4].

Biz mazkur yondashuvni qo'llab-quvvatlagan holda, internetga qaramlikni baholashda faqat internetda o'tkazilgan vaqtga emas, balki uning shaxsning ijtimoiy vazifalarini bajarishiga ko'rsatayotgan ta'siriga e'tibor qaratish lozim, deb hisoblaymiz. Chunki, internetdan uzoq vaqt foydalanishning o'zi har doim ham qaramlikni anglatmaydi. Asosiy mezon – internet tufayli ijtimoiy hayot sifatining pasayishidir.

Tahlil qilingan manbalar shuni ham ko'rsatadiki, internetga qaramlikning kelib chiqishiga ta'sir qiluvchi omillar faqat individual xususiyatlar bilan cheklanmaydi. Oiladagi nazorat darajasi, ta'lim muassasalarida raqamli madaniyatning shakllanganligi, tengdoshlar ta'siri hamda raqamli muhitning xususiyatlari mazkur jarayonda muhim o'rin tutadi [10].

Bizning fikrimizcha, internetga qaramlikni profilaktika qilishda ham kompleks yondashuv talab etiladi. Faqat internetdan foydalanish vaqtini cheklash orqali barqaror natijaga erishish qiyin. Bu jarayonda oila, ta'lim muassasalari, davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, yoshlarda raqamli madaniyat va internetdan mas'uliyatli foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish profilaktikaning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lishi lozim.

O'zbekistonda internetdan foydalanuvchilar sonining ortib borishi mazkur muammoning ijtimoiy jihatlarini chuqurroq o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Ayniqsa, internetga qaramlikning yoshlar ijtimoiylashuvi, oilaviy munosabatlar va jamoadagi ishtirokiga ta'sirini milliy sharoit xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tadqiq etish muhim ahamiyatga ega [7].

Mazkur tadqiqot natijalari internetga qaramlikni faqat psixologik emas, balki sotsiologik muammo sifatida ham baholash zarurligini ko'rsatdi. Internetga qaramlikning salbiy ijtimoiy oqibatlarini kamaytirish yoshlarda raqamli madaniyatni rivojlantirish, oila va ta'lim muassasalarining profilaktik faoliyatini kuchaytirish hamda ijtimoiy institutlar hamkorligini takomillashtirish bilan bevosita bog'liq.

XULOSA

Bu tadqiqot doirasida internetga qaramlikning yoshlar ijtimoiy munosabatlariga ta'siriga oid xorijiy va mahalliy ilmiy manbalar nazariy jihatdan tahlil qilindi. Tahlil natijalari internetga qaramlik zamonaviy raqamli jamiyatda faqat psixologik yoki tibbiy muammo emas, balki ijtimoiy munosabatlar tizimi, ijtimoiylashuv jarayonlari va ijtimoiy institutlar faoliyati bilan uzviy bog'liq bo'lgan kompleks ijtimoiy hodisa ekanligini ko'rsatdi [5].

Tadqiqot jarayonida internetdan me'yordan ortiq foydalanish yoshlarning oila a'zolari, tengdoshlari va boshqa ijtimoiy guruhlar bilan munosabatlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi aniqlandi. Shuningdek, internet muhitida uzoq vaqt bo'lish shaxsning ijtimoiy rollarini bajarishi, ta'lim jarayonidagi faolligi hamda jamiyat hayotidagi ishtirokiga ta'sir etishi mumkinligi ilmiy adabiyotlar tahlili orqali asoslandi [3].

Mavjud ilmiy yondashuvlarni qiyosiy tahlil qilish internetga qaramlikni o'rganishda psixologik yondashuvlar ustunlik qilayotganini ko'rsatdi. Biroq mazkur muammoning ijtimoiy oqibatlari, xususan, oilaviy munosabatlar, ijtimoiy kapital, tengdoshlar bilan muloqot va ijtimoiylashuv jarayonlariga ta'siri sotsiologik nuqtayi nazardan yanada kengroq tadqiq etilishi lozim. Bu esa internetga qaramlikni kompleks sotsiologik tahlil qilish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi [10].

Maqolaning ilmiy yangiligi internetga qaramlikni yoshlarning ijtimoiy munosabatlariga ta'sir etuvchi kompleks sotsiologik hodisa sifatida baholash hamda uning salbiy oqibatlarini faqat shaxsiy xususiyatlar bilan emas, balki raqamli muhit, oila, ta'lim muassasalari va boshqa ijtimoiy institutlar faoliyati bilan o'zaro bog'liq holda talqin qilinganligi bilan belgilanadi.

Bizning nazarimizcha, internetga qaramlikni baholashda asosiy mezon internetda o'tkazilgan vaqt emas, balki uning shaxsning ijtimoiy munosabatlari, ijtimoiy vazifalarni bajarishi va jamiyat

hayotidagi ishtirok darajasiga ko'rsatayotgan ta'siri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, internetga qaramlikni profilaktika qilishda cheklovlarga asoslangan yondashuvdan ko'ra, yoshlarda raqamli madaniyatni, axborotdan ongli foydalanish ko'nikmalarini va sog'lom ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar samaraliroq hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari internetga qaramlikning ijtimoiy oqibatlarini kamaytirish maqsadida bir qator amaliy yo'nalishlarni taklif qilish imkonini berdi. Jumladan, ta'lim muassasalarida raqamli madaniyatga oid o'quv dasturlarini takomillashtirish, yoshlar o'rtasida internetdan mas'uliyatli foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, ota-onalarning raqamli savodxonligini oshirish hamda profilaktik tadbirlarda davlat va jamoat tashkilotlari hamkorligini kuchaytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

So'nggi epidemiologik tadqiqotlar internetga qaramlikning, ayniqsa, yoshlar orasida keng tarqalib borayotganini hamda ushbu muammoni faqat individual emas, balki ijtimoiy darajada ham profilaktika qilish zarurligini ko'rsatmoqda [13].

Mazkur maqolada bildirilgan nazariy xulosalar internetga qaramlikning ijtimoiy oqibatlarini o'rganishga qaratilgan keyingi sotsiologik tadqiqotlar uchun muayyan ilmiy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shu bilan birga, kelgusida mazkur muammoni O'zbekiston yoshlari misolida empirik sotsiologik tadqiqotlar orqali chuqurroq o'rganish hamda uning hududiy, demografik va ijtimoiy xususiyatlarini aniqlash dolzarb vazifalardan biri bo'lib qoladi.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Goldberg I. Internet Addiction Disorder (IAD): Diagnostic Criteria. New York, 1995.
2. Young K.S. Internet Addiction: The Emergence of a New Clinical Disorder // CyberPsychology & Behavior. – 1998. – Vol. 1, No. 3. – P. 237-244.
3. Griffiths M.D. Internet addiction: An issue for clinical psychology? // Clinical Psychology Forum. – 1996. – No. 97. – P. 32–36.
4. Kuss D.J., Griffiths M.D. Internet Gaming Addiction: A Systematic Review of Empirical Research // International Journal of Mental Health and Addiction. – 2012. – Vol. 10, No. 2. – P. 278-296.
5. Widianto L., Griffiths M.D. Internet Addiction: A Critical Review // International Journal of Mental Health and Addiction. – 2006. – Vol. 4, No. 1. – P. 31-51.
6. World Health Organization. International Classification of Diseases (ICD-11). – Geneva: World Health Organization, 2019.
7. Дувалина О.Н., Морданова А.В. Интернет-зависимость среди молодежи // Colloquium-journal. – 2019. – № 9-6 (33). – С. 128-130.
8. Kuss D.J., Lopez-Fernandez O. Internet addiction and problematic Internet use: A systematic review of clinical research. World Journal of Psychiatry. 2016. Vol. 6(1). – P. 143-176.
9. Ташмухаммедова Д. Виртуал тармоқлар Ўзбекистон ёшларининг ижтимоий ролини шакллантириш омили сифатида: дис. фалсафа доктори (PhD). – Тошкент, 2024. – 156 б.
10. Социология молодежи // Мониторинг общественного мнения: экономические и социальные перемены. – 2015. – № 2. – С. 165-179.
11. Andreassen C.S. Online Social Network Site Addiction: A Comprehensive Review. Current Addiction Reports. 2015. Vol. 2(2). – P. 175–184.
12. Cheng C., Li A.Y. Internet Addiction Prevalence and Quality of (Real) Life: A Meta-Analysis of 31 Nations. Cyberpsychology, Behavior, and Social Networking. 2014. Vol.17(12). – P.755-760.
13. Kuss D.J., Griffiths M.D., Karila L., Billieux J. Internet Addiction: A Systematic Review of Epidemiological Research for the Last Decade. Current Pharmaceutical Design. 2014. Vol.20(25). – P.4026-4052.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000